



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Narzullayeva Umida Ilxomovna¹
Fayziyev Mirzaali Asfandiyorovich²

¹Nukus innovatsiya instituti Samarqand filiali.
e-mail: Narzullayevaumida82@gmail.com

²O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti pedagogika kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi.
E-mail: fma@rambler.ru, Tel.: +998979180612

NOMUTAXASSIS TA'LIM YO'NALISHLARIDA RUS TILINI INTERFAOL USULLAR ASOSIDA O'QITISH

Annotatsiya: Maqolada rus tilini o'qitishning interfaol usullari, kommunikativ metodi, shuningdek, zamonaviy texnologik vositalardan foydalanish kabi metodikalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, talabalarning rus tiliga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularda ijodiy fikrlash va samarali muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tayanch so'z va iboralar: Nomutaxassis ta'lim yo'nalishlari, rus tili o'qitish, metodika, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kommunikativ yondashuv, faollik asosidagi o'qitish, motivatsiya, o'quv jarayoni, ta'lim sifati.

Аннотация: В статье будут рассмотрены такие методы, как интерактивные методы преподавания русского языка, коммуникативный метод, а также использование современных технологических средств. Кроме того, повышение интереса учащихся к русскому языку поможет им развить творческое мышление и навыки эффективного общения. Статья будет интересна преподавателям, методистам и специалистам, занимающимся образовательной политикой.

Ключевые слова: неспецифические образовательные области, преподавание русского языка, методика, современные педагогические технологии, коммуникативный подход, деятельностное обучение, мотивация, образовательный процесс, качество образования.

Abstract: *The analysis of methods and techniques of effective teaching of the Russian language to students of non-specialized educational areas, their importance in the educational process is carried out. The article will consider such methods as interactive methods of teaching the Russian language, the communicative method, as well as the use of modern technological tools. In addition, increasing students' interest in the Russian language will help them develop creative thinking and effective communication skills.*

Keywords: *non-specific educational fields, teaching of the Russian language, methodology, modern pedagogical technologies, communicative approach, activity-based learning, motivation, educational process, quality of education.*

Kirish. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida rus tilini o'qitish jarayoni murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, nomutaxassis ta'lim yo'nalishlarida rus tilini o'qitish metodikasi o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. Talabalarning rus tiliga bo'lgan ehtiyoji va motivatsiyasi past bo'lishi, turli yo'nalishlardagi talabalarning til o'rganish darajasidagi farqlar, ma'lum vaqt doirasidagi o'quv rejasi va materiallarni moslashtirishdagi qiyinchiliklar – bularning barchasi mutaxassislarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashga undaydi. Rus tilini o'rganishda kommunikativ metodologiya talabalarning tilni samarali va ijodiy ravishda o'zlashtirishi uchun muhimdir. Ushbu metodologiya orqali talabalar real hayotda tildan foydalanish qobiliyatini rivojlantiradi, bu esa ularning professional va shaxsiy hayotida muhim ahamiyatga ega [1, 63].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Rus tilini o'qitish metodikasi, nomutaxassis ta'lim yo'nalishlarida muhim o'rin tutadi. Bu mavzudagi adabiyotlarni tahlil qilishda bir necha asosiy aspektlarga e'tibor qaratish mumkin: Rus tilini o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy metodikalar, interfaol texnologiyalar va ijodiy yondashuvlarning ahamiyati. Masalan, leksik, grammatik va kommunikativ metodlarning samaradorligi. Rus tilining grammatikasi, leksikasi va fonetikasini o'rganishdagi yangi yondashuvlar. Shuningdek, rus tilini o'rganish uchun mavjud resurslar (kitoblar, onlayn platformalar) haqida ma'lumot.

Nomutaxassis ta'lim yo'nalishida rus tilini o'rganayotgan talabalarning ehtiyojlari va manfaatlari bu kontekstda individuallashtirilgan ta'lim usullari muhim ahamiyatga ega.

Ovozli va vizual materiallar yordamida rus tilini o'qitish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari. O'quv jarayonida faol ishtirok va rol o'ynash usullarining joriy etilishi, shuningdek, talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish. Rus tili orqali rus madaniyatini o'zlashtirish va talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish.

Adbiyotlarni tahlil qilish natijasida rus tilini nomutaxassis ta'lim yo'nalishlarida samarali va interfaol metodika bilan o'qitish imkoniyatlari kengaytiriladi. Ushbu mavzudagi tadqiqotlar yosh avlod uchun rus tilini o'zlashtirish jarayonini soddalashtiradi hamda ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

"Rus tilini o'qitish metodikasi" mavzusida bir necha olimlar tadqiqot olib borgan. Svetlana Alekseyevna Sharapova – rus tilini o'qitish metodlari va o'quv materiallari bo'yicha ko'plab ishlarni amalga oshirgan. Natalya Vladimirovna Lisina – rus tilining leksikologiyasi va ta'limda innovasion metodlarni tadqiq qilgan. Yelena Sergeevna Kuznesova – rus tilini chet til sifatida o'qitish usullari bo'yicha ishlari bilan tanilgan. Tatyana Nikolayevna Grigoryeva – rus tilini o'qitishda kommunikativ metodlarni qo'llash bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

Ushbu olimlar o'z ishlarida zamonaviy ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar va leksik-grammatik aspektlarni hisobga olgan holda rus tilini o'rgatishning samarador usullarini taklif qilishadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llash quyidagi natijalarga erishishga yordam beradi:

- talabalarning rus tiliga bo'lgan qiziqishini orttirish;
- rus tilini o'zlashtirish darajasini yuqorilatish;
- talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish;
- talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatlarini orttirish.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda globallasuv jarayonlari va xalqaro aloqalarning rivojlanishi rus tilini o'rganishga bo'lgan talabni oshirmoqda. Nomutaxassis ta'lim yo'nalishlarida rus tilini o'qitish metodikasi, talabalarning tilni samarali va ijodiy ravishda o'zlashtirishini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Rus tilini o'rganishda kommunikativ metodologiyaning ahamiyati. Til o'rganishning interfaol usullari: rol o'ynash, guruhli ishlar, loyiha asosida ta'lim.

Rus tilini ta'lim yo'nalishlarida o'qitish metodikasi, asosan, talabalarning tilni samarali o'rganishini ta'minlashga qaratilgan. Metodikada interfaol usullar, muloqotga asoslangan o'qitish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Faollik asosidagi o'qitish talabalarni o'quv jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Guruh ishlari, loyihalar, taqdimotlar, rolli o'yinlar va boshqa faollik usullari qo'llaniladi [2, 640]. Integrativ yondashuv rus tilini boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitish. Talabalar o'z yo'nalishlariga tegishli matnlarni o'qib, tahlil qilib va muhokama qilib rus tilini o'zlashtirishadi [3, 25].

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, informatsion-kommunikatsion texnologiyalar, interfaol taqdimotlar, videoroliklar, onlayn materiallar, onlayn testlar va boshqa texnologik vositalar yordamida o'quv jarayonini qiziqarli va samali qilish

mumkin [4, 15]. Interfaol o'quv metodlari: "Mikrofon", "Snejniy kom", "Karusel", "Klaster" va boshqalar yordamida talabalarni faol qatnashishga undaydi [4, 85]. Loyiha o'quv metodlari: Talabalar mustaqil ravishda loyihalarni ishlab chiqib, taqdim qilishadi. Bu metod talabalarni mustaqil ishlashga, ma'lumot topishga, tahlil qilishga va ijodiy fikrlashga o'rgatadi [5, 57-60].

Rus tilini o'rgatishda kommunikativ metodologiyaning ahamiyati juda katta. Ushbu metodologiya talabalarga tilni faqatgina nazariy jihatdan emas, balki amaliy ravishda ham o'zlashtirish imkonini beradi. Kommunikativ metodologiya tilni amaliy qo'llashda, talabalarga tilni ijodiy va amaliyotda ishlatishga yordam beradi. Ushbu metodologiya talabalarning ma'ruzalar, dialoglar va muammolarni hal qilish orqali til ko'nikmalarini rivojlantiradi [6, 22].

Madaniyat va kontekst. Tilni o'rganish jarayonida madaniy kontekstning ahamiyati katta. Kommunikativ metodologiya talabalarga rus madaniyatini, an'analarini va turmush tarzini o'rganish imkonini beradi, bu esa tilni samarali o'zlashtirilishga olib keladi. Bu o'z navbatida, jamoaviy aloqalarni, fikrlashni va ijodiy yondashuvlarni rivojlantiradi [7, 37].

Til o'rganish jarayonida interfaol metodlar (rol o'ynash, debatlar, loyiha asosidagi ishlar) talabalarning qiziqishini oshiradi. Ular o'zlarini real vaziyatlarda his qilishadi, bu esa motivatsiyani kuchaytirishga yordam beradi.

Fikrlash va ijodiy yondashuv. Kommunikativ metodologiya talabalarga muammolarni ijodiy ravishda hal qilish, o'z fikrlarini ifodalash va boshqalar bilan samarali aloqada bo'lish imkoniyatlarini beradi [8, 211]. Ushbu metodologiya grammatika, leksika va fonetika kabi til komponentlarini integratsiyalashga yordam beradi, bu esa talabalarning umumiy til ko'nikmalarini yaxshilaydi. Rus tilini boshqa fanlar bilan integratsiyalashtirish, masalan, madaniyat, tarix yoki geografiya fanlari bilan. Bu talabalar tilni o'rganish jarayonida kengroq kontekstda tushunishiga yordam beradi.

Differensiyalashgan yondashuv har bir talabani individual ravishda o'rganish ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim beradi. Bu o'quvchilarning turli darajadagi qobiliyatlarini inobatga olish va ularning o'ziga xos ehtiyojlariga mos ravishda darslarni tashkil etishni anglatadi.

Innovatsion texnologiyalarni (masalan, onlayn platformalar, mobil ilovalar) qo'llash orqali dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bu talabalar uchun interfaol va ko'p qirrali o'rganish imkoniyatlarini yaratadi.

Talabalarni tilni amaliy qo'llashga, turli vaziyatlarda muloqot qilishga tayyorlaydi. Misol uchun, rolli o'yinlar, guruhli ishlar va loyiha asosidagi faoliyatlar orqali.

Maqsadga yoʻnaltirilgan oʻqitish oʻquvchilarning kelajakdagi faoliyatlari va kasbiy maqsadlariga mos ravishda rus tilini oʻrganishlarini ragʻbatlantiradi. Madaniy kontekst rus tili va madaniyatini birgalikda oʻrganish, bu esa talabalar uchun tilni oʻzlashtirishni yanada qiziqarli va mazmunli qiladi.

Ushbu jihatlar nomutaxassis taʼlim yoʻnalishlarida rus tilini oʻqitishda muhim ahamiyatga ega boʻlib, talabalar uchun samarali va foydali taʼlim jarayonini taʼminlaydi.

Xulosa va takliflar. Nomutaxassis taʼlim yoʻnalishlarida rus tilini interfaol usullar asosida oʻqitish metodikasi talabalarning tilni samarali oʻzlashtirishi uchun zamonaviy va interfaol yondashuvlarni talab etadi. Ushbu metodika, talabalarning motivatsiyasini oshirish va ularga rus tilini real hayotda qoʻllash imkoniyatlarini yaratishga yordam beradi.

Nomutaxassis taʼlim yoʻnalishlarida rus tilini oʻqitishdagi muammolarni hal etish uchun zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalarni qoʻllash juda muhim. Oʻqituvchilar talabalarning ona tili, madaniyati va qiziqishlarini hisobga olib, oʻqitish jarayonini tashkil etishlari lozim. Shu bilan birga, talabalar oʻzlari ham rus tilini oʻrganishga boʻlgan qiziqishlarini oshirishlari va oʻquv jarayonida faol ishtirok etishlari kerak. Nomutaxassis taʼlim yoʻnalishlarida rus tilini oʻqitish metodikasiga zamonaviy yondashuvlar, talabalarning tilni samarali va faol oʻzlashtirishini taʼminlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Kommunikativ metod, proyektga asoslangan oʻqitish, innovasion texnologiyalar va differensiallashgan oʻqitish kabi usullar talabalarning qiziqishini oshirish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish va tildan amaliy foydalanishini taʼminlashda samarali boʻladi.

Rus tilini oʻrganish jarayonida madaniyatni ham inobatga olish, talabalarning tilga boʻlgan qiziqishini yanada oshiradi. Shu bilan birga, zamonaviy metodikalarni qoʻllash, oʻqituvchilarning professional rivojlanishini talab etadi. Bu esa taʼlim sifatini yaxshilashga olib keladi. Natijada, rus tili nomutaxassis taʼlim yoʻnalishlarida samarali va qiziqarli tarzda oʻrgatiladi. Nomutaxassis taʼlim yoʻnalishlarida rus tili oʻqitish metodikasi zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalarni qoʻllash bilan takomillashtirishga muhtoj. Bu talabalarni rus tiliga qiziqtirish, tilni oʻzlashtirish darajasini yuqorilatish va talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida rus tilini muvaffaqiyatli qoʻllashiga yordam beradi.

Oʻqitish strategiyalari dastlabki bosqichdagi talabalar uchun moslashtirilgan materiallardir. Zamonaviy texnologiyalardan, yaʼni audio va vizual vositalar (onlayn platformalar, mobil ilova va elektron kitoblar)dan foydalanishning tilni oʻrganishda ahamiyati katta. Talabalarning motivatsiyasini oshirish til oʻrganish jarayonida talabalarning qiziqishini uygʻotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djumaniyozova, D.K. Rus tili darslarida o‘qitishning nostandart shakllari va usullari / D.K.Djumaniyozova. — Текст: непосредственный // Молодой учёный. 2022. № 22 (417). S.673-675.
2. Passov, Ye.I. Zamonaviy rus tili o‘qitish metodikasi. Moskva: Просвещение. 2010. -640 s.
3. Verbiskaya, N.V. Rus tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuv. Moskva: Русский язык. 2013. -97 s.
4. Komarova, Ye.Ye. Rus tilini o‘qitishda interfaol metodlar. Moskva: Просвещение. 2016. -85 s.
5. Tursunov, B. Rus tilini o‘qitishda informasion-kommunikasion texnologiyalarni qo‘llash. Ilmiy maqolalar to‘plami. 2018. 57-60 s.
6. Axmedov, R. Nomutaxasis ta’lim yo‘nalishlarida rus tilini o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llash. O‘quv qo‘llanma. 2019. -22 s.
7. Tojiboyev, M. Nomutaxasis ta’lim yo‘nalishlarida rus tilini o‘qitishning faollik asosidagi metodlari. O‘quv qo‘llanma. 2020. -37 s.
8. Bim I.L. Rus tili o‘qitish metodikasi. - M.: Издательский центр «Академиya», 2010. S. 211-214.